

**KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNING SAMARALI RIVOJLANISHIGA TA’SIR
ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR**

Madmarova Gulchehra Qodirovna

Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21128260>

Annotatsiya: Dastlab qaraganda, faoliyat va ijod bir-biriga zid tushunchalardek tuyuladi. Faoliyat ongli, rejalashtirilgan va maqsadga yo’naltirilgan bo’lsa, ijod ko’pincha spontan, ondan tashqari va tartibga solinmaydigan jarayon sifatida namoyon bo’ladi. Ammo psixologik nuqtayi nazardan, inson ruhiy hayoti bu ikki jarayonning almashinuviga asoslanadi: faoliyat – ongli ijodning shakli, ijod esa ong osti energiyasining ifodasi. Shaxs ijodiy natijaga erishish uchun ongli faoliyatga kirishib, madaniyatning normativ asoslarini o’zlashtirishi lozim. Aks holda, yaratilgan mahsulot madaniy jihatdan tushunarsiz bo’ladi. Demak, ijodiy faollik faoliyat jarayonida shakllanadi va uning ichki mexanizmlaridan biridir. Ushbu maqolada kasbiy-pedagogik ijodkorlikning samarali rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Ijodkorlik, ijod, kreativlik, kompetensiya, mahorat, individuallik, qobiliyat, shaxsiy oʻz-oʻzini rivojlantirish.

Ijodkorlikning mohiyatini tashkil etuvchi asosiy psixologik xususiyatlar – originallik, tafakkur moslashuvchanligi, sezgirlik va yangi g’oyalarni yaratishga ichki ehtiyoj kiradi. Bular shaxsning ijodiy potensialini belgilovchi omillardir. Ushbu sifatlar mavjud bo’lmasa, haqiqiy ijodiy faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. Insonda ilgari to’plangan tajriba asosida shakllangan “ijodga yo’налgan ichki ustanovka” yangi g’oyalarni izlashga doimiy ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu ehtiyoj nafaqat faoliyat samaradorligini oshiradi, balki tafakkur jarayonini ham doimiy ravishda rag’batlantiradi.

Ijodkorlik mohiyatan ikki qarama-qarshi, ammo o’zaro bog’liq jihatni o’zida mujassam etadi:

1. Natija sifatidagi ijod – bu yangi mahsulot, yangilik yoki g’oyaning paydo bo’lish jarayonidir;
2. Jarayon sifatidagi ijod – bu insonning o’z imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish orqali o’zini rivojlantirishidir.

Amerikalik psixolog K.Rodgers ijodiy jarayonni “shaxsning o’ziga xos individualligidan kelib chiqqan holda, hayotiy tajriba, insonlar va vaziyatlar ta’sirida yangi mahsulot yaratish jarayoni”, deb ta’riflaydi. Uning nazariyasiga ko’ra, ijod bu shaxsning o’zini ifoda etish va hayotni qayta qurish shaklidir.

V.Drujinin va N.Xazratova tadqiqotlariga ko’ra, ijodiy qobiliyatlar kamida ikki bosqichda shakllanadi:

Birinchi bosqich – “umumiy kreativlik” (3–5 yosh) – bu boladagi ijodiy xatti-harakatlarning boshlang’ich, ixtisoslashmagan shaklidir. Bu davrda bola kattalarga taqlid qilib ijodiy modelni o’zlashtiradi (bu jarayon “bolalar ijodi” fenomeni sifatida tanilgan).

Ikkinchi bosqich – “ixtisoslashgan kreativlik” (13–20 yosh) – bu davrda bola ilgari shakllangan umumiy kreativlik asosida o’zining kasbiy yo’nalishiga xos ijodiy faoliyatni rivojlantiradi. Bu bosqichda namuna, ideal shaxs, oila va tengdoshlar qo’llab-quvvatlovi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bosqichning yakunida shaxs ikki xil yo’ldan birini tanlaydi:

- taqlid darajasida qoladi,
- originallikka intilib, mustaqil ijod sari o’tadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, kreativlik intellekt singari umumiy iqtidor negizida shakllanadi, ammo u insonning ijtimoiy tajribasi va motivatsion tizimiga bevosita bog’liq.

Birinchi qarashda ijodkorlik taqlidga ziddek tuyuladi, biroq paradoks shundaki, har qanday ijodning ildizida aynan taqlid mavjud. Inson madaniyatni o’zlashtirish va uni o’zgartirish uchun avvalo mavjud ijodiy modelni o’rganadi. Taqlid bu jarayonda shaxsni madaniy-tarixiy tajribaga olib kiradi. “Namuna”, “stereotip”, “etalon” tushunchalari oddiy qarashda ijod bilan qarama-qarshi bo’lsa-da, aslida ular ijodga tayanch bosqich sifatida xizmat qiladi.

3–5 yosh oralig’i bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng samarali davr hisoblanadi. Bu yillarda bola she’r, ertak, hikoya to’qish orqali o’zining “ijodi”ni namoyon etadi. 8–15 yoshda ijodiy faoliyatda taqlid unsurlari kuchayadi, originallik kamayadi. Ammo 16–17 yoshda inson o’ziga xoslikni qayta kashf etadi va haqiqiy, mustaqil ijodiy faoliyatga o’tadi.

Taqlid – bu madaniyatda mustahkamlangan ijodiy faoliyat usullarini egallash vositasi. U shaxsni madaniyat tomonidan yaratilgan eng yuqori pog’onaga olib chiqadi. Taqlid faoliyati kamayib borishi bilan bir qatorda shaxsning mustaqil ijodiy harakatlari kuchayadi. Shaxs haqiqiy ijodkorlik bosqichiga chiqishi uchun ijod unga shaxsiy, hissiy jihatdan yaqin faoliyatga aylanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson o’z idealiga chuqur hamdardlik bilan qarasa, u holda bu ideal orqali o’zining ijodiy “men”ini anglay boshlaydi. Bu holat – taqlid bosqichini yengib o’tishning asosiy psixologik shartidir.

Demak, ijodiy faoliyatda hissiy, intellektual va irodaviy jarayonlar bir butun tizim sifatida amal qiladi. Ijodiy tafakkurning o’ziga xos xususiyatlari – tasavvur, intuitsiya va obrazli fikrlash insonni boshqa bilish shakllaridan ajratib turadi. Bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bu, o’z navbatida, ta’lim tizimida o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ochish, mustaqil fikrlashini qo’llab-quvvatlash va faol, yangilik yaratuvchi shaxsni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.


Kasbiy-pedagogik ijodkorlik umumiy ijodiy faoliyatdan bir qator o’ziga xos pedagogik belgilari bilan farq qiladi:

1. Ma’naviy-axloqiy yo’nalganlik. O’qituvchining ijodiy faoliyati faqat bilim berishga emas, balki shaxsni tarbiyalash, unda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Shu bois pedagogik ijodning markazida insonparvarlik, mehr, empatiya va axloqiy mas’uliyat turadi.
2. Subyekt-subyekt munosabatiga asoslanish. Pedagogik ijodkorlik o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro hurmat va hamkorlik asosida amalga oshadi. Bu jarayonda o’qituvchi o’quvchini faol subyekt sifatida ko’radi, uni ta’lim jarayonining hamkoriga aylantiradi.
3. Pedagogik refleksiya va o’zini tahlil qilish. Ijodiy pedagog o’z faoliyatini doimiy tahlil qiladi, o’z tajribasini qayta baholaydi, xatolarni tan olib ularni bartaraf etish yo’llarini izlaydi. Shu jihatdan, pedagogik ijodkorlik – bu refleksiv tafakkurning amaliy ifodasidir.
4. Innovatsion yo’nalganlik va adaptivlik. Pedagogik ijodkorlik o’qituvchidan ta’lim jarayonidagi o’zgarishlarga moslashuvchanlik, yangi texnologiyalarni sinovdan

o’tkazish, o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga qarab metodlarni moslashtirishni talab etadi.

5. Ta’limiy maqsadlarning integrativligi. Ijodkor o’qituvchi o’z faoliyatida fanlararo aloqani, o’quvchilarning ijtimoiy, estetik, axloqiy va intellektual rivojini uyg’un tarzda ta’minlaydi. Shu bois pedagogik ijodkorlik ta’lim-tarbiya jarayonining integrativ mohiyatini ochib beradi.

Kasbiy-pedagogik ijodkorlikning samarali rivojlanishi quyidagi pedagogik omillarga tayanadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Kasbiy-pedagogik ijodkorlikning samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar

a) Muammoli o’qitish muhitining yaratilishi – o’quvchilarda mustaqil fikrlashni rag’batlantiruvchi, o’qituvchida esa yangi metodlarni sinovdan o’tkazishga turtki beruvchi muhitni yaratish;

b) Refleksiv va o’z-o’zini tahlil qilish faoliyatini yo’lga qo’yish – o’qituvchi o’z darsini, muloqot uslubini, baholash tizimini tahlil qilib, ularni takomillashtiradi;

c) Kasbiy motivatsiyaning mustahkamlanishi – o’qituvchining o’z ishidan qoniqish, kasbiy maqsad sari intilish hissi kuchaytiriladi;

d) Pedagogik hamkorlik – tajriba almashish, “Lesson Study”, “Peer Coaching” yoki “Professional Learning Community” kabi platformalarda faol ishtirok etish.

Kasbiy-pedagogik ijodkorlik o’qituvchidan nafaqat bilim va metodik tayyorgarlikni, balki individual yondashuv, o’ziga xos uslub va ijodiy tafakkurni ham talab qiladi. Pedagogik faoliyatda individuallik quyidagilarni ta’minlaydi:

- o’qituvchining o’z “men” konsepsiyasini shakllantiradi;
- ta’lim jarayoniga yangicha ruh olib kiradi;
- o’quvchilarda ijodiy faoliyatga ijobiy munosabat uyg’otadi;
- o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida ishonchli pedagogik hamkorlikni qaror toptiradi.

Insonning kasbiy faoliyati, ayniqsa pedagogik sohada, uning shaxsiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog’liqdir. Har bir o’qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga

o‘zining noyob individualligini, o‘ziga xos uslubini va dunyoqarashini olib kiradi. Shu sababli individuallashtirish – bu o‘qituvchining tashqi, obyektiv mehnat sharoitlariga moslashishning ichki mexanizmidir.

O‘qituvchi faoliyatida individuallik uch asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- individual xususiyatlar;
- individual faoliyat uslubi;
- shaxsiy individuallik (yagonalik).

Individual xususiyatlar o‘qituvchining kasb tanlash motivlari, darsda qo‘llaydigan uslublari, kasbiy munosabatlari, faoliyat uslubi va o‘quv jarayonidagi psixologik pozitsiyasida aks etadi. Har bir pedagog o‘zining temperamentiga, idrok qilish tezligiga, sezgirlik darajasiga va emotsional barqarorligiga ko‘ra o‘ziga xos uslubni tanlaydi.

Individual pedagogik uslub – bu o‘qituvchining tabiiy qobiliyatlari, tug‘ma psixologik fazilatlari hamda ijtimoiy tajribasi asosida shakllangan kasbiy o‘ziga xoslikdir. U quyidagi uchta asosiy omil ta’sirida vujudga keladi:

1. O‘qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari (temperament, hissiy barqarorlik, empatiya, o‘zini nazorat qilish qobiliyati);
2. Pedagogik faoliyatning mazmuni va murakkabligi (fan xususiyatlari, ta’lim shakli, o‘quvchilarning yosh bosqichi);
3. O‘quvchilarning individual xususiyatlari (faollik, bilish motivlari, ehtiyojlari, fe’l-atvori).

Pedagogik uslub quyidagi jihatlarida o‘z ifodasini topadi:

- ish sur’ati va reaksiya tezligi;
- muammoli vaziyatlarga nisbatan reaksiyasi;
- dars usullarini tanlashdagi mustaqillik;
- o‘quvchilar bilan muloqot uslubi;
- tarbiyaviy ta’sir vositalarini qo‘llash;
- rag‘bat va jazo usullarini tanlashdagi farqlar.

Mazkur jihatlar o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyati va psixologik sezgirligi darajasini belgilaydi.

Demak, o‘qituvchi individualligi va kasbiy-pedagogik ijodkorlik faoliyati o‘zaro uyg‘un holda rivojlanar ekan, u ta’lim jarayonining ijodkor tashkilotchisiga, o‘quvchi shaxsini esa o‘z-o‘zini anglay oladigan mustaqil ijodkor subyektga aylantiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.A.Do’stmuhammedova, G.Baykunasva, G.Ziyaviddinova "Umumiy psixologiya "(Yosh davrlar va pedagogik psixologiya) 2020-yil
2. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" Toshkent- 2019-yil.
3. B.Karimova "Ijtimoiy psixologiya" Toshkent-2007.
4. Cramond, B. & Wang, L. (2012). The audacity of creativity assessment. In S. Hunsaker (ed.), Identification of students for gifted and talented education services: Theory and practice, pp. 337–361. Mansfield, CT: Creative Learning Press.
5. Dewey, J. (1938/2008). The Later Works of John Dewey, Vol. 4, 1925–1953: 1929: The Quest for Certainty (Collected Works of John Dewey). Carbondale, IL: Southern Illinois University Press.